

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR-**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

6-2024

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

R.A.Axrorova	
«Yosh» tushunchasining lingvistik talqini	317
Г.М.Хошимов	
Некоторые константы грамматики, касающиеся структурных особенностей гипотаксемы с адвербиальным компонентом темпоральности.....	322
N.Z.Abduraxmonova, O.O.Yulbarsov, G'.G'.Abduvaxobov	
Neologizm – kompyuter lingvistikasida tahlil birligi sifatida	329
M.Sharipova	
Ingliz tilida onomatopeik so'zlarning fonosemantik tahlili	334
A.O'.Abdullayev	
Ramzlarda shakl va mazmun munosabatlari.....	337
O'.A.Xudoynazarova	
Islom ta'limoti asosida shakllangan diniy barqaror birikmalar	344
F.R.Turg'unova	
Grammatik kompressiya orqali yangiliklar sarlavhalarini optimallashtirish. Strategiyalarni o'rganish va auditoriyani jalb qilish	349
M.A.Abduvaxobova	
Fransuz va o'zbek tillaridagi "Famille" – "Oila" semantik maydoniga doir	354
M.A.Kurbanov	
Muloqotda noverbal vositalar yordamida madaniyat, urf-odatlar va adab shakllarining ifoda etilishi.....	358
M.M.Kaxarova, Sh.B.Tolipova	
Nemis tilida og'zaki nutqni hamkorlik orqali rivojlantiruvchi mashq turlari va ulardan samarali foydalanish	364
M.Karimov	
"O'tkan kunlar" romanidagi o'xshatishning inglizcha tarjimalarda aks etish masalalari	368
X.P.Муртозоев	
Вижагиҳои савти ва услубии ҳодисаи афзоиш дар ашъори намояндагони сабки хурсонии адабиёти тоҷику форс.....	374
N.N.Odilova	
A comparative analysis of spellonyms in contemporary english and uzbek literature	384
M.B.Shamsiyeva	
Peyzaj matni murakkab sintaktik butunlik sifatida.....	388
I.T.Rustamov	
Ingliz va o'zbek folklor janr matnlarining semantik maydoni	392
K.Yu.Feryza	
Многоаспектная природа английских и русских провербиальных фразеовербализаторов концепта «head/голова/глава» и их лингвостилистические особенности	396
C.Э.Саидова	
Манзараи этники-диалекталии аҳолии сурхондарёи шарқӣ.....	401
G.A.Komilova	
Ingliz tilida siyosatchilar nutqida stilistik vositalarning nutq ta'sirchanligini oshirish vositasi sifatida qo'llanilishi	406
C.Ч.Маҷитова	
Антропонимҳо – ифодагари хислатҳои инсон дар ғазалиёти абдурахмони ҷомӣ.....	410
M.A.Matmusayeva	
Maktabgacha ta'limda o'yinlar- soha terminlari sifatida	419
Y.Sh.Shuxratova	
Sintaktik sathda o'xshatishlarning tabiatiga doir	423
H.H.Xoldorova	
Study of the concept of "Field" in modern linguistics	426
D.I.Mirzayeva	
Contextual-semantic analysis of fixed similes in english.....	429
K.T.Israilova	
Ijtimoiy tarmoqlar tili va medialingvistika tavsifi.....	432



UO'K: 81'276.6:81'373.611.1

NEMIS TILIDA OG'ZAKI NUTQNI HAMKORLIK ORQALI RIVOJLANTIRUVCHI MASHQ TURLARI VA ULARDAN SAMARALI FOYDALANISH**ТИПЫ УПРАЖНЕНИЙ ДЛЯ РАЗВИТИЯ НАВЫКОВ УСТНОЙ РЕЧИ НА НЕМЕЦКОМ ЯЗЫКЕ С ПОМОЩЬЮ СОВМЕСТНОЙ РАБОТЫ И ИХ ЭФФЕКТИВНОЕ ИСПОЛЬЗОВАНИЕ****TYPES OF EXERCISES TO DEVELOP GERMAN SPEAKING SKILLS THROUGH COLLABORATION AND THEIR EFFECTIVE USE****Kaxarova Mavludaxon Mukaramovna¹**¹Farg'ona davlat universiteti professori**Tolipova Shaxloxon Baxromjon qizi²** ²Andijon davlat universiteti tayanch doktoranti**Annotatsiya**

Ushbu maqolada nemis tili darslarida og'zaki nutqni hamkorlik asosida rivojlantiruvchi mashq va topshiriqlarning turli xil tiplaridan samarali foydalanish, ularni dars jarayoniga to'g'ri tatbiq etish tahlil qilindi.

Аннотация

В данной статье проанализировано эффективное использование на занятиях немецкого языка различных видов упражнений и заданий, развивающих устную речь на основе сотрудничества, их правильное применение в процессе урока.

Abstract

In this article, the effective use of various types of exercises and tasks that develop oral speech on the basis of cooperation in German language classes, their correct application to the lesson process was analyzed.

Kalit so'zlar: og'zaki nutq, juft bo'lib ishlash, og'zaki nutqni shakllantiruvchi mashq va topshiriqlar, rolli o'yinlar, intervyu.

Ключевые слова: устная речь, работа в парах, упражнения и задания, формирующие устную речь, ролевые игры, собеседование.

Key words: oral speech, work in pairs, exercises and tasks that form oral speech, role-playing games, interview.

KIRISH

Nemis tili asosiy chet tili sifatida o'qitiladigan darslarda og'zaki muloqot nemis tilini o'rgatishda muhim rol o'ynaydi. Og'zaki mashqlar orqali o'quvchilar nafaqat nutq malakalarini oshirishlari, balki suhbatlashish ko'nikmalarini ham egallashlari mumkin. Nemis tili darslarida og'zaki muloqotni rivojlantirishning turli usullari mavjud. Bularga, masalan, rolli o'yinlar, muhokamalar, taqdimotlar yoki guruh ishlari kiradi. Bu mashg'ulotlar orqali o'quvchilar o'zlarining til ko'nikmalarini real kommunikativ vaziyatlarda qo'llashlari va nutqqa bo'lgan ishonchlarini oshirishlari mumkin. Barchamizga ma'lumki, nemis tilini asosiy chet tili sifatida o'qitishda o'quvchilarning o'zaro hamkorlik qilishlari interaktiv muhitda til ko'nikmalarini rivojlantirishning ajoyib usuli hisoblanadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Nemis tilida og'zaki nutqni hamkorlik orqali rivojlantirish bo'yicha ko'plab olimlar va tadqiqotchilar tadqiqotlar olib borishgan va kitoblar yozishgan. Ushbu mavzuda quyidagi muhim olimlarning kitoblari va tadqiqotlari mavjud: **Lev Vygotsky**- "*Thought and Language*" ("Fikr va Til"). Vygotskyning til va nutq rivojlanishi haqidagi nazariyasi hamkorlik, muloqot va o'rganish jarayonining bir-biriga bog'liqligini ta'kidlaydi. Uning asarlari hamkorlik orqali til o'rganishning qanchalik samarali ekanini ko'rsatadi. **Michael Long**- "*Second Language Acquisition and Task-Based Language Teaching*". Michael Long vazifaga asoslangan til o'rgatish nazariyasini rivojlantirgan. Ushbu yondashuvda o'quvchilar hamkorlikda muayyan topshiriqlarni bajarish orqali til o'rganadilar, bu esa og'zaki nutqni rivojlantirishda samarali hisoblanadi. **Merrill Swain**- Bir qancha

TILSHUNOSLIK

maqolalar, jumladan *"Collaborative Dialogue in Second Language Learning"*. Swain hamkorlikdagi muloqot (collaborative dialogue) nazariyasini ilgari suradi. U tilni o'rganishda o'quvchilar bir-birlari bilan ishlaganda ko'proq muvaffaqiyatga erishishlarini ta'kidlaydi. **Leo van Lier** - *"The Ecology and Semiotics of Language Learning: A Sociocultural Perspective"*. Van Lierning til o'rganish bo'yicha ekologik va sotsiomadaniy yondashuvi, o'quvchilarni interaktiv va hamkorlikdagi mashg'ulotlar orqali tilni o'rganishga yo'naltiradi. **Helena Curtain va Carol Ann Dahlberg** - *"Languages and Children: Making the Match"*. Ushbu kitob chet tilini boshlang'ich darajada o'rgatishda hamkorlik va interaktiv mashqlar orqali til o'rgatish usullarini ko'rsatadi. **Jack C. Richards va Theodore S. Rodgers** - *"Approaches and Methods in Language Teaching"*. Bu kitob turli xil til o'rgatish metodlarini o'rganadi va ularda hamkorlikning roli haqida ma'lumot beradi. Ushbu kitoblar va mualliflarning tadqiqotlari til o'rgatishda, ayniqsa, og'zaki nutqni rivojlantirishda hamkorlikning samaradorligini ko'rsatib beradi. Mazkur kitoblarni o'qish orqali o'qituvchilar va til o'rganuvchilar nemis tilida og'zaki nutqni rivojlantirishda foydali bo'lgan strategiyalar va yondashuvlarni o'rganishlari mumkin.

Rolli o'yinlarning asosiy maqsadi - til o'rganuvchilarning kundalik vaziyatlarda til amaliyotini yaxshilash sanaladi. Bunda o'qituvchi juft bo'lib harakat qiladigan ssenariylarni yaratadilar (masalan, xarid qilish suhbat, shifokor tashrifi, restoranga tashrif). Juftliklarga suhbatni tashkil qilish uchun aniq rollar va vazifalarni berish o'qituvchidan talab etiladi.

Intervyu topshiriqlarining maqsadi - so'roq va faol tinglash texnikasini rivojlantirish hisoblanadi. Dars davomida talabalar ma'lum bir mavzu bo'yicha savollar tayyorlaydilar va bir-birlari bilan suhbatlashadilar. Keyin ular to'plangan ma'lumotlar haqida sinfga hisobot berishadi.

So'z bilan bog'liq muammolarning yechimi - o'qishni tushunish va matn ishlab chiqarishni yaxshilash demakdir. Buni amalga oshirish uchun hamkorlarga birgalikda solishtirish va muhokama qilish uchun matndan turli parchalarni beriladi. Keyin ular birgalikda xulosa yoki o'zlarining matnlarini yaratishlari mumkin.

Juftlik va guruh mashqlarining dars jarayonidagi vazifasi - jamoaviy ish va muloqotni rivojlantirishdan iboratdir. Boshqotirma, topishmoq yoki muammoni yechish vazifasi kabi juftliklarni birgalikda yechim topishni talab qiladigan vazifalarni yaratish orqali maqsadga erishish mumkin. Bu mashq va topshiriqlar muloqot va hamkorlikni rivojlantiradi.

Tasvirni tavsiflash va taqqoslash - orqali ta'riflash qobiliyatlari va so'z boyligini yaxshilash mumkin. Bunda hamkorlarga turli xil rasmlarni beriladi. Har bir sherik o'z rasmini sherigiga ta'riflaydi, u faqat tavsifga asoslanib chizishi kerak. Keyin natijalarni solishtiradilar.

Story cubes - Story cubesning asosiy maqsad va vazifalari nemis tilida ijodiy yozish va nutq ishlab chiqarishni rivojlantirish hisoblanadi. Hamkorlik asosida ijodiy yozuv ko'nikmalari hamda nutq ishlab chiqarishni rivojlantirish uchun zarlar, rasmlar yoki so'zlardan foydalanish zarur. Til o'rganuvchilar zarlarni tashlaydilar va ko'rsatilgan rasmlar yoki so'zlar yordamida hikoya qilishlari kerak. Bu jarayonda hamkorlar bir-birini qo'llab-quvvatlashi va to'ldirishi mumkin.

Feedback berish orqali og'zaki nutq topshiriqlari - Juftliklar bir-birlariga feedback berish orqali xatolarni tuzatish va nemis tilini bilishni yaxshilash mumkin, shuningdek, til bilish ko'nikmalarini yaxshi takomillashtirishda talabalarga sherigi ularga fikr bildirganda, topshiriqni bajarish so'raladi. Ko'zlangan maqsadga erishish uchun juftliklar topshiriqlarning natijalarini o'zaro tekshirish yoki javoblarni birgalikda ko'rib chiqish orqali amalga oshirish mumkin.

Ijodiy dialoglar - Ijodiy dialoglarning maqsadi til o'rganuvchilarda erkin muloqotni amalga oshirishni targ'ib qilish hisoblanadi. Bunda juftliklarga mavzu yoki boshlang'ich vaziyat beriladi va ular haqida suhbat o'tkaziladi yoki munozara shaklida bo'lishi mumkin.

O'qish va tinglab tushunish - Nemis tilida turli maqolalar, hikoyalar o'qish yoki ularni tahlil qilish, shuningdek, nemischa podkastlar, radio intervyular tinglashning asosiy maqsadi tinglab tushunish va o'qishni tushunishni yaxshilash sanaladi. Buni amalga qo'llash uchun juftliklardan biri matn yoki audio yozuvni tinglashi yoki o'qishi, ikkinchisi esa u haqida savollar beradi yoki mazmunini tushuntirish talab etiladi.

Madaniy almashinuv faoliyati - Ushbu mashg'ulotni amalga oshirishdan maqsad til o'rganuvchilarda madaniyatlararo tushunish va tildan foydalanishni chuqurlashtirishdir. Buning uchun til o'rganuvchilar madaniy farqlar va o'xshashliklar haqida fikr almashadilar. Bu munozaralar, taqdimotlar yoki hatto virtual almashinuv dasturlari orqali amalga oshirilishi mumkin.

Bu mashg'ulotlar nafaqat o'quvchilarning til ko'nikmalarini oshirishga yordam beradi, balki ijtimoiy o'zaro munosabat va ularning til ko'nikmalariga ishonchni mustahkamlaydi.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Nemis tilini o'qitishda mashq turlari va ulardan samarali foydalanish muhim. Bu yerda samarali mashqlarni va ularning o'quvchilar uchun foydali jihatlarini keltirib o'taman:

- Lug'at boyligini oshirish mashqlari
- Kartochkalar va fleshkartlar: O'quvchilar yangi so'zlarni yodlashda, ularni mustahkamlashda foydalanishi mumkin.
- Sinonim va antonimlar: Yangi so'zlarni sinonim va antonimlari bilan birga o'rganish o'quvchining tushunish qobiliyatini oshiradi.
- Mavzuli lug'at: Har bir mavzu bo'yicha so'zlarni o'rganish orqali o'quvchilar so'z boyligini oshiradi.
- Grammatika Mashqlari:
- Gap tuzish mashqlari: O'quvchilar grammatikani tushunishda va foydalanishda rivojlanishadi. Misol uchun, gap bo'laklarini almashtirib, yangi gaplar yaratish.
- To'ldiruvchilar bilan mashq qilish: Bo'sh joylarni to'ldirish orqali o'quvchilar grammatik qoidalarni mustahkamlab oladi.
- Matn tahlili va qayta yozish: Grammatik tahlil va qayta yozish mashqlari orqali grammatikani chuqurroq o'zlashtirish mumkin.
- Tinglab Tushunish Mashqlari
- Audio va video mashqlar: Nemis tilida o'qitilgan ovozli matnlarni tinglash orqali o'quvchilar tovushlarni ajratish va so'zlarni to'g'ri talaffuz qilishni o'rganadilar.
- Interaktiv qo'llanmalardan foydalanish- YouTube va boshqa o'quv platformalari yordamida tinglab tushunish qobiliyatlarini rivojlantirish.
- O'qish va Tushunish Mashqlari
- Qisqa hikoya va maqolalar: Nemis tilidagi hikoya va maqolalar o'quvchilarning lug'at boyligini oshiradi va til tushunchalarini kengaytiradi.
- Savol-javob mashqlari: O'qilgan matnga savollar tuzish va ularga javob berish orqali matnни to'liq tushunish malakasini rivojlantirish.
- Og'zaki Mashqlar
- Suhbatlashish mashqlari: Har kuni bir mavzu bo'yicha suhbatlashish o'quvchilarning og'zaki tilini rivojlantiradi.
- Rolli o'yinlar: Turli mavzular bo'yicha rolli o'yinlar tashkil qilish orqali o'quvchilar o'z til qobiliyatlarini sinab ko'rishadi va mustahkamlaydilar.
- Savol berish va javob berish: O'quvchilar bir-birlariga savollar berib va javob berib, so'zlashuv qobiliyatini rivojlantiradilar.
- Yozma Mashqlar
- Insho va hikoya yozish: Har xil mavzularda insho yoki qisqa hikoya yozish o'quvchilarni yozma tilda o'z ifodalarini aniqroq yetkazishga yordam beradi.
- Kunlik yozish: Har kuni qisqacha kunlik yozish, o'quvchining tilda faol fikrlashini kuchaytiradi.
- Matnli javob yozish: Kichik savollarga yozma javoblar berish orqali yozma mashq malakalarini rivojlantirish mumkin.

Tavsiyalar

- ❖ **Davomiylilik va takrorlash:** Yangi ma'lumotlarni yodlashda takrorlashning samarali usul ekanligini hisobga olib, muntazam ravishda o'tkazish muhim.
- ❖ **O'quvchilar qiziqishini o'stirish:** Mashg'ulotlar qiziqarli bo'lsa, o'quvchilar tilni o'rganishga ko'proq ishtiyoq bilan yondashadi.
- ❖ **Yondashuvni o'zgartirish:** Har xil usullardan foydalanish orqali o'quvchilarni zeriktirmaslik va ularning qobiliyatlarini yaxshiroq rivojlantirish mumkin.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, interaktiv mashqlar onlayn dasturlar va mobil ilovalar: Nemis tilini o'rgatishga mo'ljallangan Duolingo, Babbel kabi ilovalar bilan mashq qilish samarali hisoblanadi.

TILSHUNOSLIK

Video o'yin va krossvordlar, Til o'rganishga mo'ljallangan o'yinlar o'quvchilarni qiziqtiradi va ularda o'yin orqali til o'rganishga qiziqish uyg'otadi. Bu mashq turlari orqali nemis tilini samarali o'qitish va o'quvchilarni muvaffaqiyatga erishish uchun rag'batlantirish mumkin.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Hermann Funk, Christina Kuhn, Dirk Skiba, Dorothea Spaniel-Weise, Reiner E. Wicke (2014): Aufgaben, Übungen, Interaktion. Klett- Langenscheidt, München
2. GROSSMANN, Simone (2011): mündliche und schriftliche Arbeitsanweisungen im Unterricht Deutsch als Fremdsprache, 83. Frankfurt a. M: Lang.
3. HATTIE, John (2011): Visible Learning for Teachers: Maximizing Impact on Learning. London, New York: Routledge.
4. HAYES, John R./ Flower, Linda S. (1980): Identifying the organization of writing processes. In: Gregg, L. W./Steinberg, E. R. (Hgg.) Cognitive Processes in Writing. Hillsdale: Erlbaum, S. 3-30.